



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BADIIY TASVIR VOSITALARI TUSHUNCHASI VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI TADQIQI

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o'g'li
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy adabiyotning fundamental o'zagi hisoblangan badiiylik mezonini, badiiy obraz hamda badiiy so'zning tabiati lisoniy va adabiyotshunoslik aspektlarida tadqiq etilgan. Maqolada «obraz» atamasining slavyan va rus tillari qatlamidagi etimologik ildizlari Vladimir Dal, Maks Fasmer hamda o'zbek adabiyotshunos olimlari talqinlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi, atamaning arab tilidagi «bade'» (яратувчанлик) konsepti bilan mushtarak jihatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, badiiy so'zning funksional tabiati, lirik kechinmaning tabiati (oniy va xotira lirik kechinmalari) hamda badiiy mantiqning hayotiy mantiq bilan aloqadorligi yoritilgan. Maqola so'nggida o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy til, uslub muammolarini o'rganishda biryozlamalikka barham berish, lingvopoetika va filologik yaxlitlikka erishish zarurati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: badiiylik, badiiy obraz, etimologiya, badiiy so'z, lirik kechinma, oniy kechinma, badiiy mantiq, lingvopoetika, filologik qamrov, badiiy uslub.

ПОНЯТИЕ СРЕДСТВ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ И ИХ ИССЛЕДОВАНИЕ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Мирхалиев Хаётжон Ниятқобул ўғли

Каттакурганский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуются критерий художественности, являющийся фундаментальной основой художественной литературы, а также природа художественного образа и художественного слова в лингвистическом и литературоведческом аспектах. В работе проводится сравнительный анализ этимологических корней термина «образ» в славянском и русском языковых пластах на основе интерпретаций Владимира Даля, Макса Фасмера и узбекских литературоведов, а также демонстрируется его общность с арабским концептом «баде'» (созидание, творчество). Кроме того, освещаются функциональная природа художественного слова, типология лирических переживаний (мгновенные лирические переживания и лирические переживания памяти), а также взаимосвязь художественной логики с жизненной логикой. В заключении статьи научно обосновывается необходимость преодоления односторонности в изучении художественного языка и стиля в узбекском языкознании и литературоведении, акцентируется внимание на важности лингвопоэтики и комплексного филологического подхода.

Ключевые слова: художественность, художественный образ, этимология, художественное слово, лирическое переживание, мгновенное переживание, художественная логика, лингвопоэтика, филологический охват, художественный стиль.

THE CONCEPT OF ARTISTIC EXPRESSIVE MEANS AND THEIR STUDY IN LINGUISTICS

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o'g'li

Kattakurgan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article explores the criterion of artistic quality (badiiylik), which is considered the fundamental core of fiction, alongside the nature of the artistic image and the artistic word from both linguistic and literary perspectives. The study provides a comparative analysis of the etymological roots of the term "image" (obraz) within the Slavic and Russian linguistic layers, relying on the interpretations of Vladimir Dal, Max Vasmer, and Uzbek literary scholars, while highlighting its commonalities with the Arabic concept of "bade'" (creativity). Additionally, the functional nature of the artistic word, the typology of lyrical experiences (momentary and memory-based lyrical experiences), and the correlation between artistic logic and real-life logic are elucidated. The article concludes by scientifically justifying the need to overcome one-sidedness in studying artistic language and style in Uzbek linguistics and literary criticism, emphasizing the transition toward linguopoetics and holistic philological analysis.

Keywords: artistic quality, artistic image, etymology, artistic word, lyrical experience,

momentary experience, artistic logic, linguopoetics, philological scope, artistic style.

Har qanday san'at turining mavjudlik asosi va uni boshqa ijtimoiy-madaniy hodisalardan ajratib turuvchi fundamental xususiyati, shubhasiz, badiiylik mezonidir. Badiiylik — borliqni ijodiy qayta anglash va uni estetik qonuniyatlar doirasida subyektiv-obyektiv tarzda aks ettirish jarayonida namoyon bo'luvchi unifikatsiyalashgan (birlashtiruvchi) kategoriyadir. Binobarin, san'atni badiiylik tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi; u barcha san'at turlarining estetik qimmatini belgilovchi eng oliy o'leov sanaladi. Shu bois ham estetika va sotsiologik-madaniy tahlillarda faol qo'llaniladigan «badiiy asar», «badiiy obraz», «badiiy tafakkur», «badiiy til» va «badiiy uslub» kabi o'nlab birikmali atamalarining fundamental o'zagi aynan shu tushunchaga borib taqaladi.

Etimologik jihatdan «badiiy» leksemasi arab tilidagi «bad'un», «badi'a» o'zaklaridan shakllangan bo'lib, mohiyatan yangilik yaratish, ilk bor kashf etish, ijodiy tafakkur mahsuli sifatida vujudga keltirish ma'nolari bilan aloqador. Ilmiy-nazariy termin sifatida esa u estetik qonuniyatlarga tayanuvchi ijodiy faoliyatning eng birlamchi va yetakchi konseptini ifodalaydi. Keng ma'noda badiiylik borliqning betakror obrazlar tizimi orqali qayta modellashtirilishini anglatadi, tor (funksional) ma'noda asarning estetik salohiyati va qimmatini belgilovchi bosh mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan ikki jildlik «Adabiyot nazariyasi» kitobining ikkinchi jildida T. Rasulov «obraz» atamasini quyidagicha izohlaydi: «Zotan, obraz so'zi o'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra ham tasavvur bo'yicha tuzilgan suvratni, ya'ni tasvirni anglatadi... Obraz deyilganda qadimiy slavyan xalqlari ongida shu xil in'ikos topuvchi narsa, voqea yoki hodisalar tasvirini tushunishgan. Chunonchi, xristian dinining asoschilari tomonidan yaratilgan Iisus-Xrist (Iso) suvrati buning eng xarakterli misolidir. Ularning ta'biricha, bu suvratda go'yo odamzotni turli azob-uqubatlardan saqlab qolish uchun «xaloskor» sifatida yuborilgan xudoning yerdagi «elchi»si qiyofasi aks etar emish. Slavyan xalqlari xristianlikni qabul qilayotganlarida, birinchi navbatda ana shu obrazni ko'z oldilariga keltirishgan...» [2].

Iqtibosni shu o'rinda to'xtatib, muallifning *obraz* so'ziga sahifa ostida bergan izohini to'liq keltirishni lozim topdik: «Bu so'zning paydo bo'lishi “raz” (chiziq) o'zagidan boshlanadi. “Raz”dan “raziti” (chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), “raziti”dan “obraziti” (chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq), “obraziti”dan esa umuman olingan tasvir ma'nosidagi “obraz” atamasi vujudga kelgan» [3].

Xuddi shunday fikr boshqa tadqiqotchilarda ham aynan takrorlanadi. Masalan, X. Karimov o'zining bir risolasida T. Rasulovning «obraz» atamasining etimologiyasi haqidagi fikrini keltiradi va bu fikrga xayrixoh ekanligini bildiradi [4].

Obraz so'zining aynan yuqoridagidek talqinini M. Fasmerning lug'atida ko'rish mumkin: «Образ... от основы рѣзъ, связанного чередованием с рѣзъ; см. рѣз, рѣзать. Отсюда образовъ, образованный, образование...» [5].

Ikkinchi bir buyuk lug'atchi V. I. Dal esa slavyan xalqlarida, jumladan, rus tilida bir-biriga yaqin, ammo bir-biridan ma'no jihatidan keskin farq qiluvchi ikkita so'z o'zagi borligini ko'rsatadiki, M. Fasmer ham ana shu o'zaklarni bir-biriga aralashtirib yuboradi. Bular «razit» va «rezit» so'zlaridan iborat. «Obraz» so'zi «razit», «obrazit» — paydo qilmoq, ya'ni u yoki bu narsaning tashqi ko'rinishini, shaklini paydo qilish ma'nosidagi so'zdan olingan bo'lsa [6], «rezit», «obrezat» — kesmoq, yo'nmoq kabi ma'nolarga ega. Bizningcha, «obraz» so'zi kesmoq, yo'nmoq ma'nolarini ifodalovchi «rezit» so'zidan emas, balki paydo qilmoq, tasvirlamoq ma'nolarini ifodalovchi «razit», «obrazit» so'zidan olinganligi haqiqatga yaqindir. Bu talqinning to'g'riligi yana shunda ham ayon bo'ladiki, arab tilidagi «bade'» so'zining ma'nosi paydo qilmoq, yaratmoq, ijod qilmoq kabilardan iborat ekan, demak, «obraz» so'zining ham ma'nosi paydo qilmoq, yaratmoq ekanligi ayni haqiqatdir [7]. Chunki badiiylikning mohiyatini voqelikni obrazlar vositasida in'ikos ettirish tashkil etadi. Shu bois ham badiiylik — obraz, obrazlilik demakdir. Obraz atamasiga turli qomuslar va lug'atlarda etimologik izoh berilmay, balki obrazning san'at turlarida voqelikni o'zlashtirishning vositasi, shakli ekanligi bir xilda izohlanadi.

Muhokama. Badiiy obrazni moddiy olamning inson ongida bevosita aks etishi sifatida tushunish obrazni gnoseologik tushunishdan iborat. Badiiy obraz voqelikni, hayotiy mushohadalarni, taassurotlarni ijodkor dunyoqarashi va estetik ideali orqali qayta ishlanishi oqibatida yangidan yaratilishidan iborat. Binobarin, badiiy obrazning mohiyati voqelikning badiiy umumlashmaga aylanganligi va betakror alohidalikda aks ettirilganligi yoki ifodalanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham badiiy obrazning umumlashganligi voqelikni bevosita o'z qobig'ida aks ettirishga qaraganda keng va chuqurroq qamrab oladi. San'atning barcha yo'nalishlarida badiiylik mavjud. Termin sifatida u go'zallik ma'nolarini o'zida mujassam etadi. Badiiy adabiyotdagi badiiylik va go'zallik, avvalo, so'z orqali

voqelanadi. Soʻz bu oddiy soʻz emas, his-hayajon, harakat va holatni, oʻy va kechinmani oʻzgalar qalbi va shuuriga taʼsir etadigan darajada ifodalay oladigan soʻzdir.

Badiiy soʻzning funksional qamrovi cheksizdir: u milliy tilning barcha qatlamlarini — umumisteʼmoldagi leksikadan tortib, dialektizmlar, istorizmlar, professionalizmlar, hatto qoʻllanishi cheklangan leksika (jargon va argolar) hamda funksional uslublar (rasmiy, publitsistik, ilmiy) elementlarini oʻz ichiga qamrab oladi. Ushbu lisoniy birliklar ijodkorning badiiy va estetik niyatiga xizmat qiladigan tarzda saralanib, oʻzaro munosabatga kirishganda, yaʼni badiiy kontekst muhitida faollashgandagina badiiy soʻzga aylanadi. Buning uchun soʻz muallifning his-tuygʻu va kechinmalari bilan toʻyinishi lozim va buning natijasida kitobxon ongida kuchli estetik taʼsir koʻrsata oladi.

Adabiyotshunoslikda badiiylik mezonini quyidagi ikki xil darajada oʻlchanadi. Birinchisi — asar asosini tashkil etuvchi badiiy voqelik, uning mazmuniy koʻlami va u orqali ilgari surilgan gʻoyaning badiiy-estetik darajasi. Ikkinchisi — shakli daraja, yaʼni syujet, kompozitsiya, badiiy tasvir vositalari va boshqa elementlar. Yuqoridagi tasnifdan kelib chiqqanda, adabiy asarning badiiyligini baholaganda, birinchi navbatda uning mazmun-mohiyatiga, soʻngra ana shu mohiyatning soʻz orqali ifodalanish darajasiga eʼtibor berish lozim. Koʻpincha badiiy asar tahlil qilinganda, yuqorida aytib oʻtilgan ikki tasnifdan biriga eʼtibor qaratilib, ikkinchisi eʼtibordan chetda qolmoqda. Qisqa qilib aytganda, badiiylikning mohiyati asarning mazmuniy qatlamlarida yashiringan boʻlsa, uning reallashuvi va moddiylashuvi aynan shakl (til va kompozitsiya) vositasida kechadi. Shu bois, mazmun va shakl badiiylikning oʻzaro ajralmas ikki qanotidir.

Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar ijodkorning diqqat-eʼtiborini tortib, qalbi va shuuriga oʻrnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi oʻy surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. Sanʼatkorning qalbini zabt etgan, uning oromini, huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma deb ataladi. Lirik kechinma baʼzan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qiymat kasb etuvchi mahsul beradi va yoʻqoladi. Baʼzan esa u muayyan tugallikka, estetik qiymat kasb etuvchi asar sifatida shakllana olmay, ijodkor qalbida va shuurida uzoq vaqtlar saqlanib yuradi. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirik kechinma voqea boʻlishi va tugal estetik qiymatga ega boʻlgan asar sifatida shakllanishiga qarab ikki xilga boʻlinadi:

1. Oniy lirik kechinma;
2. Xotira lirik kechinma.

Oniy lirik kechinma ijodkorda u yoki bu voqea-hodisa taʼsirida favqulodda tarzda tugʻiladi va qisqa bir vaqt ichida muayyan sheʼriy asar sifatida shakllanishi tufayli xulosalanadi. Oniy lirik kechinma ijodkorning ruhiy, hissiy va aqliy faoliyatlarining birgalikda, bir vaqtda qoʻshilishi tufayli estetik qiymat kasb etuvchi tugallikka erishadi. Shu bois oniy lirik kechinma oʻta beqaror va oʻtkinchi boʻladi. Biroq ana shunday oʻtkinchi kechinma oldindan oʻylanmagan, yaʼni ongsiz ravishda katta badiiy kashfiyotlar qilishga sababchi boʻladi. Badiiy kashfiyot yangicha fikrlash, yangicha tasavvur mahsulidir. Yangicha fikrlash, kutilmaganlik, favqulodda muqoyasa qilish mahsuli sifatida u ilgarilari muqoyasa qilingan voqea-hodisalardan ham yangi maʼnolar ifodalaydigan qirra va xususiyatlarni topadi, asarni yangi obraz va hissiy koʻlam bilan boyitadi, asar mazmuniga yaxlitlik, tugallik va estetik qiymat bagʻishlaydi. Har bir shoirdagi ijodiy oʻziga xoslik oniy lirik kechinma taʼsirida vujudga keluvchi ana shu yangicha fikrlashning mahsulidir. Yangicha fikrlash, voqea-hodisalarni yangicha idrok etish, yangicha baholash boʻlmagan joyda ijodiy oʻziga xoslik, uslubiy betakrorlik boʻlmaydi. Shu nuqtayi nazardan olib aytganda, har bir shoirning oʻziga xos ifoda usuli va fikrlarini takrorlanmas shaklda kitobxonga taqdim etadigan mahorati boʻladi.

Natija. Oʻzbek tilshunosligida badiiy til va badiiy nutq, badiiy uslub masalalari nihoyatda zaif hamda biryoqlama tadqiq etiladiki, yuqorida biz ana shunday tadqiqotchilardan birining ishidagi atigi bir nechta sahifa xususidagina bahs yuritdik. Biroq kelgusida ushbu masalalar haqida maʼlum darajada tadqiqotlar olib borgan X. Doniyorov, R. Qoʻngʻurov, I. Qoʻchqortoyev, S. Karimov, E. Qilichev, Q. Samadov kabi olimlarning ishlariga ham qisqacha toʻxtalib oʻtish niyatimiz yoʻq emas. Ammo bir narsani alohida taʼkidlab oʻtish joizki, tilshunosmi yoki adabiyotshunosmi, lingvopoetikada, badiiylik (obrazlilik) masalalarida birlashib ketishlari lozim, shundagina ular haqiqiy filologga aylanadilar. Badiiylik muammolari esa sof filologik muammolardir, binobarin, ularni keng filologik qamrov va noziklik bilan hal qilish lozim.

Xulosa. Badiiy mantiq, ijodkor ideali, ijodiy xayoli va dunyoqarashi bilan qay darajada bogʻliq boʻlmasin, obrazlar va voqealarning badiiy talqinini, vazifasini belgilashda u hayotiy mantiqqa rioya qilishi lozim. Badiiy mantiq xayolan, hattoki tasavvurda ham hayotiy mantiq mezonlari doirasidan tashqariga chiqsa, oʻzining hayotiy qiyofasini, taʼsirchanligini maʼlum darajada yoʻqotadi. Shuning uchun badiiy mantiq har doim, har bir shaklda ham hayotiy mantiq bilan muayyan darajada shartlangan holda voqea

bo‘lishi shart.

Badiiy obrazning sintezlashish jarayoni ichki suronli, og‘ir va murakkab, hayajonli va lazzatli bo‘lganligi uchun ijodkorning mijozi, xarakteri hamda xislati bilan bog‘liq holda har xil kechadi, binobarin, badiiy obraz ham har xil darajada tug‘iladi. Ayrim ijodkorlarda u to‘laqonli va barkamol, ba’zilarida esa sust va nursiz tug‘ilishi mumkin. Bu narsa ijodkordagi ruhiy holatga mutanosibli, aytilmoqchi bo‘lgan g‘oyaning aniqligi va ta’sirchanligi kabi juda ko‘p jihatlar bilan aloqador. Qayd etilgan ana shu jihatlarning bir butunlikda yetilib kelish onlari yuqorida aytganimiz ilhom damlariga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 19 b.t. (hammualliflikda).
2. Bahodir Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – 6 b.t.
3. Mualliflar jamoasi Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 280 b.
4. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4 т. Т. 4. – Санкт-Петербург; Москва: М.О. Вольфа, 1882. – 712 с.
5. Karimov H. Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik. – Toshkent: O‘zbekiston, 1984. – 64 b.
6. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В 4 т. Т. 3. – Москва: Прогресс, 1987. – 832 с.